



# ACADEMIC SPECTRUM

**Ilmiy-metodik jurnal**  
**Научно методический журнал**  
**Scientific and Methodical Journal**

**ISSN**

**3093-9089**





# **ACADEMIC SPECTRUM**

**Ilmiy-metodik jurnal**  
**Научно методический журнал**  
**Scientific and Methodical Journal**

*№3-Son (2026-yil, Mart)*

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy  
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi  
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

**BOSH MUHARRIR:**

**Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

**TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI**

**Кулешов Валерий Владимирович** - pedagogika fanlari doktori, professor  
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

**Andriyenko Yelena Vasilyevna** - pedagogika fanlari doktori, professor  
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va  
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Romm Tatyana Aleksandrovna** - pedagogika fanlari doktori, professor  
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim  
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorvich** - Texnika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich** - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro  
davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri).

**Zaripov Lochin Rustamovich** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy  
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni  
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

**Xamidov Akmal Amrulloevich** – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD) (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori)

**Nazarov Akmal Mardonovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
(Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha  
birinchi prorektor).

**Safarov Dilmurod Xalimovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
(Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo'yicha direktor  
o'rinbosari)

**Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li** - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent  
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

**Ganjiyev Feruz Furqatovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent  
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini professori).

**Kosimov Ubaydulla Axrorovich** - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va  
psixologiya, ta‘lim texnologiyalari kafedrasini mudiri)

**Ismatova Dilafuz Tuymuratovna** - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

**Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich** - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar  
kafedrasini dotsenti).



**Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li** - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasida dotsenti).

**Mas‘ul kotib:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi

**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Valeriy Vladimirovich Kuleshov** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

**Elena Vasilyevna Andrienko** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

**Tatyana Aleksandrovna Romm** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

**Tadjixodjayev Zokirkhoja Abdusattorovich** — Doctor of Technical Sciences, Professor.

**Shirinboy Sharofovich Olimov** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

**Lochin Rustamovich Zaripov** — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

**Khamidov Akmal Amrulloevich** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

**Akmal Mardonovich Nazarov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

**Dilmurod Xalimovich Safarov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

**Shavkat Shuhrat o‘g‘li Rustamov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the “Psychology” Department).

**Feruz Furqatovich Ganjiyev** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

**Kosimov Ubaydulla Axrorovich** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies at the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

**Dilafruz Tuymuratovna Ismatova** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).



**Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Information Systems and Digital Technologies” Department).

**Muxtor Hasan o‘g‘li Tilavov** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

**EXECUTIVE SECRETARY:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

### ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

**Ахмадов Назирджон Рахмат угли** — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

**Кулешов Валерий Владимирович** — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

**Андрienко Елена Васильевна** — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

**Ромм Татьяна Александровна** — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

**Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович** — доктор технических наук, профессор.

**Олимов Ширинбой Шарофович** — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

**Зарипов Лочин Рустамович** — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

**Хамидов Акмал Амруллоевич** — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, директор Центра педагогического мастерства Бухарской области.

**Назаров Акмал Мардонович** — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

**Сафаров Дилмурод Халимович** — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

**Рустамов Шавкат Шухрат угли** — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

**Ганжиев Феруз Фуркатович** — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

**Косимов Убайдулла Ахрорович** — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой педагогики и психологии, образовательных технологий Центра педагогического мастерства Бухарской области.

**Исматова Дилафруз Туймуратовна** — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).



**Мухлисов Содикжон Саиджонович** — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

**Тилавов Мухтор Хасан угли** — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:**

**Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли** — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

## MUNDARIJA:

<b>T/R</b>	<b>Mualliflar</b>	<b>Maqola sarlavhasi</b>	<b>Bet</b>
1	<i>AXMADOV NAZIRJON RAHMAT O'G'LI</i>	THE ROLE OF SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN SHAPING POSITIVE BEHAVIOR AMONG ADOLESCENTS	12
2	<i>SHAROPOVA MADINA OBID QIZI</i>	RAQAMLI QARAMLIK (SMARTFON, IJTIMOYIY TARMOQLAR) STRESSI VA IMMUNITET PASAYISHI	16
3	<i>SHAROPOVA ZARNIGOR OBID QIZI</i>	TUG'RUQDAN KEYINGI DEPRESSIYADA IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ROLI (O'ZBEKISTON AYOLLARI MISOLIDA)	20
4	<i>RAJABOV RASULBEK SOBIR O'G'LI</i>	O'ZBEK OILASIDA MEHR, HURMAT VA MAS'ULIYAT KABI PSIXOLOGIK OMILLAR IJTIMOYIY BARQARORLIKNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI	24
5	<i>MA'RUFJONOVA MARJONAXON ALISHER QIZI</i>	EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF NATIONAL RELIGIOUS VALUES IN TEACHING ENGLISH TO DIFFERENT AGE GROUPS	27
6	<i>BAHRONOVA IRODA OTABEK QIZI</i>	BOLALAR NUTQINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOYIY OMILLAR	30
7	<i>YOQUBOVA MAFTUNA SHOYIM QIZI</i>	BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	33
8	<i>RO'ZIOULOVA UMIDA AKBAR QIZI, TUROBOVA ZIYODA SHUHRAT QIZI</i>	MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI HAMDA OTA- ONALAR MUNOSABATI ORASIDAGI NIZO VA YECHIMLAR	37
9	<i>JUMAYEV NODIR ZAYNITDINOVICH</i>	O'SMIRLARDA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK JIHATLARI	57
10	<i>HAMROYEV TEMURBEK JAMSHID O'G'LI</i>	CHET ELGA MEHNAT MIGRATSIYASI KETGAN OTA- ONALARNING FARZANDLARIDA IJTIMOYIY MOSLASHUV JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.	67
11	<i>JALILOV JAVOHIR JAMSHID O'G'LI</i>	O'QUVCHILARDA KASB MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI	72

<b>T/R</b>	<b>Mualliflar</b>	<b>Maqola sarlavhasi</b>	<b>Bet</b>
12	<i>SHAROPOV SUXROB SHODI O'G'LI</i>	O'SMIRLIK DAVRIDA REFLEKSIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING METAKOGNITIV MEXANIZMLARI	75
13	<i>YOQUBOV SODIQJON LATIF O'G'LI</i>	QARLUQ TIL BIRLIKLARI LEKSIKASINING LUG'AT FONDI VA LUG'AT TARKIBI	79
14	<i>OLIMOV LAZIZ YARASHOVICH</i>	SUD-PSIXOLOG EKSPERTI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI	83
15	<i>RAJABOV ELSHOD ERKINOVICH</i>	“ILTIFOT” NUTQIY AKTINING BADIY MATNDA VOQELANISHINING FREYM MODEL T AHLILI	89
16	<i>NAZAROV AKMAL MARDONOVICH</i>	YOSHLAR PSIXOLOGIYASI VA MA'NAVIY TARBIYA: INNOVATSION JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MA'NAVIY QOBILYATNI OSHIRISH YO'LLARI	94
17	<i>RUSTAMOV SHAVKAT SHUHRAT O'G'LI</i>	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDAGI TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING ILMIY VA IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	98
18	<i>DEHQONBOYEV SHOHJAHON OYBEK O'G'LI</i>	SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASIDA STRESS HOLATLARINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH	105
19	<i>AXMEDOVA ZARINA RAHMAT QIZI</i>	LOYIHAVIY YONDASHUV ORQALI KELAJAK O'QITUVCHILARNI FASILITATORLIK FAOLYATIGA TAYYORLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	112
20	<i>AXMEDOVA ZARRINA JAMILOVNA</i>	TALABALARNING DUAL TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHUVINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	121
21	<i>GANJIYEV FERUZ FURQATOVICH</i>	AGRESSIV O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI YUZAGA KELISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI	126
22	<i>HAMROYEV JASUR UMEDOVICH</i>	THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE STUDY OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN YOUTH	130
23	<i>SHAROPOV SUXROB SHODI O'G'LI</i>	O'SMIR VA TALABA YOSHLARIDA ICHKI MOTIVATSIYA VA REFLEKSIV TAFAKKUR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	134
24	<i>HAFIZOV DIYORBEB ZARIF O'G'LI</i>	BOLALAR VA AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK, PEDOFILIYA VA ERTA NIKOH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA HUQUQIY MEXANIZMLAR	140

<b>T/R</b>	<b>Mualliflar</b>	<b>Maqola sarlavhasi</b>	<b>Bet</b>
25	<i>ASHRAPOV NODIRBEK NAMOZ O'G'LI</i>	SPECIFIC PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOCIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF THE COGNITIVE SYSTEM OF ADOLESCENTS	144
26	<i>MURODOVA MADINA ATAJON QIZI</i>	IJTIMOY TARMOQLARDAN FOYDALANISH, UYQU SIFATI VA TALABA QIZLAR PSIXOLOGIK HOLATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	147
27	<i>ABDUVORISOVA MAFTUNAXON ABDUVOXID QIZI</i>	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI	151
28	<i>JAXONOV JAVLONBEK JAMIL O'G'LI</i>	O'SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINI O'RGANISHNING EMPIRIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI	154

**Jaxonov Javlonbek Jamil o‘g‘li**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali Ijtimoiy psixologiya yo‘nalishi magistranti.*

### **O‘SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINI O‘RGANISHNING EMPIRIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini o‘rganishning empirik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida psixodiagnostik metodlar va so‘rovlar yordamida olingan natijalar asosida o‘smirlar xulq-atvori va jinoyatga moyillik bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik omillar aniqlangan. Natijalar profilaktika va erta tashxislash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.*

**Kalit so‘zlar:** *O‘smirlarda jinoyat motivlari, jinoyat motivlar, o‘smirlar xulq-atvori, trening, psixokorreksiya, ichki ziddiyatlari.*

**Жахонов Жавлонбек Жамил угли**

*магистрант направления «Социальная психология» Самаркандского филиала  
Ташкентского международного университета химии.*

### **ЭМПИРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕСТУПНЫХ МОТИВОВ У ПОДРОСТКОВ**

**Аннотация:** *В данной статье проанализированы эмпирические основы изучения формирования преступных мотивов у подростков. В процессе исследования с помощью психодиагностических методов и опросов выявлены социально-психологические факторы, связанные с поведением подростков и их предрасположенностью к преступной деятельности. Результаты позволяют разработать практические рекомендации для профилактики и раннего выявления проблем.*

**Ключевые слова:** *преступные мотивы у подростков, преступные мотивы, поведение подростков, тренинг, психологическая коррекция, внутренние конфликты.*

**Jakhonov Javlonbek Jamil ugli**

*Master’s student in Social Psychology at the Samarkand branch of Tashkent International  
University of Chemistry.*

### **EMPIRICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING THE FORMATION OF CRIMINAL MOTIVES IN ADOLESCENTS**

**Abstract:** *This article analyzes the empirical foundations for studying the formation of criminal motives in adolescents. Using psychodiagnostic methods and surveys, the study identified socio-psychological factors related to adolescent behavior and their predisposition to criminal activity. The results enable the development of practical recommendations for prevention and early detection.*

**Keywords:** *criminal motives in adolescents, criminal motives, training, psychological correction, internal conflicts.*

O‘smirlik davrida jinoyat motivlarining shakllanishi – bu faqat tashqi omillar emas, balki shaxsning ichki psixologik resurslari bilan bog‘liq murakkab jarayondir. O‘smirlarda aqliy barqarorlikni ta‘minlash, psixik muvozanatni saqlab qolish va moslashuvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan maxsus psixologik ishlar ushbu muammo yechimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ayniqsa, jinoyatga moyilligi aniqlangan yoki xavf guruhi ostidagi o‘smirlar bilan ishlashda bunday yondashuvlar sezilarli darajada ijobiy natijalarni beradi. Trening va tuzatish yo‘nalishidagi mashg‘ulotlar yordamida o‘smirlar o‘zlarining ichki holatini anglaydi, emotsional to‘qnashuvlarga nisbatan munosabatini qayta ko‘rib chiqadi, shuningdek, huquqbuzarlikka olib boruvchi motivlar asosida turuvchi reaktiv holatlarni boshqarishni o‘rganadi.

Trening davomida ishtirokchilarga real yoki imitatsion ijtimoiy vaziyatlar asosida o‘z emotsiyalarini boshqarish, qaror qabul qilishda alternativ ijtimoiy jihatdan maqbul xatti-harakatlarni

tanlash va shaxslararo munosabatda ijobiy nuqtai nazarni ushlab qolish bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantiriladi. Asosiy maqsad – o‘smirlarning huquqbuzarlikka olib keluvchi ichki ziddiyatli motivlarini tan olish, uni ongli tahlil qilish hamda bu salbiy tendensiyani konstruktiv yo‘nalishga burishdan iboratdir.

Psixokorreksiya dasturi ikki asosiy bosqichda tashkil etiladi. Birinchi bosqich – tayyorgarlik va diagnostik tahlil bosqichidir. Bu jarayonda o‘smirlarning hozirgi holatdagi emotsional reaksiyalari, ijtimoiy moslashuv darajasi va jinoyatga olib keluvchi ehtimoliy motivatsion sxemalari aniqlanadi. Shaxsiy yondashuv asosida ularning o‘ziga xos ehtiyojlari va ruhiy holatlari baholanadi. Bu esa mashg‘ulotlarning individual moslashtirilishini ta‘minlaydi.

Ikkinchi bosqichda esa bevosita trening ishlari amalga oshiriladi. Unda rolli o‘yinlar, konfliktli ssenariylar, hayotiy vaziyatlar asosida testlash mashg‘ulotlari orqali o‘smirlar o‘z xatti-harakatlarini baholash, fikrlarini ifodalash, ijtimoiy reaksiya va javob variantlarini sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladilar. Ushbu bosqichda muhim urg‘u – shaxsda kuchli emotsional boshqaruvni shakllantirish, impulsiv reaksiyalarni nazorat qilish va jinoyatga olib boruvchi ichki holatlarni ijobiy yechish yo‘llarini o‘rganishga qaratiladi.

Trening davomida amalga oshiriladigan mashg‘ulotlar quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- o‘z ichki ziddiyatlari va ruhiy holatini ongli anglash;
- qonunga zid harakatlarga olib keluvchi holatlarda emotsional barqarorlikni saqlash;
- ichki ziddiyat va agressiyani nazorat qilishga qaratilgan mexanizmlarni shakllantirish;
- shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy normalar asosida alternativ yechimlar qabul qilish;
- ijtimoiy izolyatsiyadan chiqish, tengdoshlari bilan konstruktiv aloqalarni tiklash.

Bundan tashqari, jinoyatni vosita sifatida ko‘ruvchi shaxslar bilan ishlashda ijtimoiy muvofiqlik, xolis fikr yuritish, psixologik chidamlilik va ijtimoiy rollarni ongli tanlashga oid mashqlar ham amalga oshiriladi. Trening yakunida o‘smirlar o‘z ichki holatlarini to‘g‘ri tahlil qilish, agressiyani boshqarish va jinoyatga olib boruvchi noadekvat motivatsiyadan voz kechish kabi muhim ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

#### **Korreksion-trening mashg‘ulotlari dasturi**

<b>№</b>	<b>Mashq nomi</b>	<b>Mashqning vazifalari</b>
1	“Tanishtiruv”	Guruh ishtirokchilari orasida ochiq va ishonchli muhit yaratish, ijtimoiy aloqa boshlanishini osonlashtirish.
2	Hissiy javoblarni tahlil qilish	Stressli yoki mojaroli vaziyatlarga berilgan emotsional javoblarni aniqlash, o‘zini anglash darajasini oshirish.
3	Muloqot chegaralarini belgilash	Shaxsiy chegaralarni anglash, individual xavfsizlikni qadrlash, hurmat doirasida munosabat o‘rnatish.
4	Ichki holatni tushunish	O‘z motivlari, istaklari va his-tuyg‘ularini ongli ravishda aniqlash, psixologik xotirjamlikka erishish.
5	Iroda va o‘zini nazorat qilish	Impulsiv harakatlarni nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy maqbul xatti-harakatga yo‘naltirish.
6	Xulosa va refleksiya	Trening davomida yuzaga kelgan shaxsiy o‘zgarishlarni baholash, o‘z motivatsion holatini anglash.
7	Yakuniy doira	Trening yakunida ijobiy holatlarni mustahkamlash, jinoyatga yo‘naltiruvchi ehtiyojlar ustida ongli ishlashga rag‘batlantirish.

O‘smirlarda jinoyat motivlari shakllanishini o‘rganish kontekstida tuzilgan psixokorreksion mashg‘ulotlar ularning psixologik holatini engillashtirish, ichki motivatsion ziddiyatlarni kamaytirish, shaxsiy pozitsiyasini barqarorlashtirishga qaratilgan bo‘lib, harakatning asl sabablarini tushunish va uni ijtimoiy maqbul yo‘nalishga burishga xizmat qilmoqda. Ushbu treninglarda ishtirok

etgan o‘smirlar o‘zlarining ruhiy holatini tahlil qilish, ijtimoiy munosabatlarda barqarorlikni saqlash, qarorlar qabul qilishda mustaqillik va mas’uliyatni his qilishga yo‘naltirildi.

Trening davomida interaktiv metodlar, jumladan guruhiy muhokama, rolli ssenariylar, psixologik o‘yinlar orqali ishtirokchilarda ijtimoiy idrok, hissiy nazorat va situatsion tahlil ko‘nikmalari shakllantirildi. Aksariyat ishtirokchilar mashg‘ulotlar davomida ichki ziddiyatlarining yengillashganini, o‘z-o‘zini anglash darajasining oshganini va ijtimoiy muloqot malakalarining rivojlanganini bildirganlar. Ayniqsa, jinoyatga olib boruvchi impulsiv xatti-harakatlar sabablari ustida ishlash sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Mashg‘ulotlarning samaradorligini aniqlash maqsadida ishtirokchilarga dastlabki va yakuniy psixologik baholashlar o‘tkazildi. Bu tahlillar motivatsion jihatdan o‘zgarishlar, hissiy muvozanat holatining tiklanishi, agressiv niyatlarni bartaraf qilishga qaratilgan reflektiv yondashuv shakllanganini ko‘rsatdi. Treninglarning asosiy vazifasi – jinoyatga moyillikni keltirib chiqaruvchi ichki ehtiyojlarni ongli ravishda tan olish, bu ehtiyojlarga konstruktiv psixologik javob qaytarish va ijtimoiy-huquqiy me‘yorlarga mos tarzda o‘zini tutishni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Mashg‘ulotlar ikki asosiy bosqich asosida tashkil etildi. Birinchi bosqichda ishtirokchilarning individual holatlari o‘rganilib, ularning ijtimoiy reaksiyalari, stressga munosabat darajasi va xulqni baholash malakalari aniqlandi. Shuningdek, shaxsiy o‘zgaruvchanlik, o‘zini nazorat qilish salohiyati, vaziyatni baholash reflektiv ko‘nikmalari qayd etildi.

Ikkinchi bosqichda esa, o‘smirlar bilan psixokorreksion yo‘nalishda chuqur mashg‘ulotlar olib borildi. Bu bosqichda jinoyat motivlarining shakllanishida rol o‘ynovchi tashqi va ichki omillar tahlil qilinib, ularga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bajarildi. Mashqlar davomida o‘smirlarda emotsional portlashlarni nazorat qilish, impulsiv harakatlarni tahlil qilish, murosali fikr bildirish va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish malakalari mustahkamlandi.

Ushbu amaliy jarayonlar quyidagi asosiy psixologik yondashuvlarga tayanildi:

- Jinoyatga olib boruvchi holatlarda ichki motivlarni anglab yetish;
- O‘zini ijtimoiy tizimda tutishning ijobiy variantlarini tanlash;
- Ziddiyatlarga nisbatan emotsional bardoshlilikni rivojlantirish;
- Yangi vaziyatlarda ijtimoiy yondashuv asosida harakat qilish;
- Stressli holatlarda xotirjamlikni saqlash, shaxsiy fikrga ega bo‘lish;
- Guruh ichida konstruktiv fikr almashish, tashabbuskorlikni ko‘rsatish.

Xususan, jinoyat motivlariga ega bo‘lgan o‘smirlar orasida ushbu mashg‘ulotlar hissiy zo‘riqishni kamaytirish, ijtimoiy ishonch muhitini yaratish va o‘z-o‘zini anglashni kuchaytirishga xizmat qildi. Mashg‘ulot yakunida o‘tkazilgan kuzatuvlar ishtirokchilarda konstruktiv fikrlash, shaxslararo muloqotda xushmuomalalik, vaziyatlarga nisbatan ongli yondashuv, ijtimoiy-huquqiy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ko‘nikmalarining shakllanganini ko‘rsatdi.

**XULOSA:** Tahlil natijalariga ko‘ra, nazorat guruhidagi o‘smirlar huquqqa doir tushunchalarni o‘zlashtirishda yuqori samaradorlikka erishgan bo‘lib, bu holat ularning oilaviy tarbiyasida barqarorlik, maktabdagi faol ishtirok va ongli munosabat shakllanganini bilan izohlanadi. 6,64 ball ko‘rsatkich shuni anglatadiki, ular bilimlarni faqat eslab qolmasdan, amalda ham qo‘llay olish salohiyatiga ega. Tajriba guruhidagi 6,04 ball esa, o‘smirlarda bilimlar yuzaki shakllanayotganini bildiradi. Ularning bilimlarni faqat qisman egallaganligi, ta’sirchan motivatsion buzilishlar va ichki beqarorlik bilan bog‘liq. Statistika natijalari ( $t=-2,31$ ;  $p\leq 0,05$ ) bu tafovutni ilmiy asoslangan darajada tasdiqlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Асмолов А.Г. Знаем ли мы себя? Неосознанные механизмы регуляции поведения личности. –М., 1989. –41 с.
2. Асмолов А.Г. Психология личности. - М.: МГУ, 1990 - 180с.
3. Арзуманов Ю.Л. Психофизиологические основы алкоголизма и наркомании. - М.: Издатель Гайнуллин 2001.-220 с.
4. Ауэрбах А., Корсини Р., Ребер А. Большой толковый психологический словарь. - Москва, 2003. - 798 с.

5. Бадмаев С.А. Психологическая коррекция отклоняющегося поведения школьников. Издание 4-е. - М., 1999. -96 с.
6. Бандура А., Уолтере Р. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. - М.: Апрель-Пресс, изд-во ЭКСМО-Пресс, 2000.-509 с.
7. Бандура А. Теория социального научения. Монография - Санкт - Петербург: Евразия, 2000. - 320 с
8. Баротов Ш. Р. Психологик хизмат. –Т. 2018. -346 б.
9. Басов М.Я. Поведение личности как предмет изучения. В кн.: Избранные психологические произведения. - М.: Педагогика, 1975. - 432 с.
10. Абульханова-Славская К. А. Стратегия жизни - Москва: Мысль, 1991. -299 с.
11. Абульханова-Славская К.А. Проблема личности в психологии / Психологическая наука в России XX столетия: проблемы теории и истории. - Москва: ИП РАН, 1997. -373 с.
12. Абульханова-Славская К.А. Типология активности личности // Психология личности и образ жизни. – М., 1987. -10-11 с.
13. Авдеева Н.Н. и др. Развитие личности на разных этапах онтогенеза // Психология личности в трудах отечественных психологов. - Санкт - Петербург: Питер 2000.-180 с.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,  
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy  
**Elektron manzil:** <https://aspec.uz>  
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

*“ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy-metodik jurnal.*  
*Buxoro, 2026 № - 3-Son (2026-yil, Mart)*